

БУХГАЛТЕРИЯ МИЛЛИЙ СТАНДАРТЛАРИ ВА МОЛИЯВИЙ ҲИСОБОТНИНГ ХАЛҚАРО СТАНДАРТЛАРИНИНГ ФАРҚЛИ ЖИҲАТЛАРИ

Омонова Зарина Худоймуродовна

Термиз давлат университети магистранти

Annotatsiya: *Maqolada Buxgalteriya hisobining milliy standartlari va moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari orasidagi farqli jihatlar, ba'zi xo'jalik operatsiyalarining milliy va xalqaro standartlarda aks ettirilishi yoritib berilgan.*

Kalit so'zlar: *Moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlari, Buxgalteriya hisobining milliy standartlari, kelgusi davr xarajatlari, prinsiplar, moliyaviy hisobot shakllari, hisobvaraqlar*

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24- fevraldagi PQ-4611 sonli qarori 1- ilovasi «Ilg'or xalqaro tajribani hisobga olgan holda moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini va mazkur sohada kadrlar tayyorlashning zamonaviy usullarini bosqichma bosqich joriy etish bo'yicha Yo'l xaritasida Buxgalteriya hisobining milliy standartlarini MHXS lari bilan uyg'unlashtirishni takomillashtirish uchun xalqaro ekspertlarni jalb qilgan holda buxgalteriya hisobining milliy standartlari va MHXS o'rtasidagi muhim farqlanishlar bo'yicha keng qamrovli axborotlar tayyorlash vazifasi belgilab berilgan. Bu vazifalar Moliya vazirlipsh va Buxgalter va auditorlar respublika jamoat birlashmalariga yuklatilgan. O'zbekiston Respublikasida olib borilgan islohotlar natijasi shunda ko'rindiki, milliy standartlarimiz yillar davomida xalqaro standartlarga yaqinlashtirib borilgan.

Moliyaviy hisobotlarni milliy va xalqaro standartlar asosida tuzishning farqli jihatlari haqida so'z yuritishdan oldin moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlari va hozirgi kunda amalda bo'lgan Buxgalteriya hisobining milliy standartlari o'rtasidagi farqli jihatlarni ko'rib chiqish maqsadga muvofiq.

Bu farqli jihatlarni quyidagi jadval orqali tushunib olamiz¹⁸⁸

Ko'rsatkichlar	Xalqaro standartlar bo'yicha	Buxgalteriya hisobining xalqaro standartlari bo'yicha
Standartlarni tasdiqlash uchun mas'ul organ	Moliyaviy hisobotlarni xalqaro standartlari komiteti	O'zbekiston respublikasi Moliya vazirligi
Buxgalteriya hisobi va hisobotini yurituvchi organlar	Moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlari xo'jalik yurituvchi sub'ektlar -kichik biznes vakillari (mhxs ni qo'llash huquqiga ega ammo majburiy emas) -o'rta biznes vakillari (mhxs ni qo'llash huquqiga ega ammo majburiy emas) -yirik biznes vakillari, jamoat	

¹⁸⁸ Lex.uz. ma'lumotlari va tadqiqotlar asosida tayyorlangan.

	tashkilotlari(mhxs larini qo'llashi shart)	
Soni	2022 yil holatiga 17 ta MHXS va 22 ta BHXS	1 ta konseptual asos va 22 ta BHXS dan iborat
Moliyaviy hisobot shakllari jamlamasi	Balans Foyda va zararlar hisoboti Xususiy kapitaldagi o'zgarishlar to'g'risidagi hisobot Pul oqimlari to'g'risidagi hisobot Izohlar	-Buxgalteriya balansi -Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot -Pul oqimlarining harakati to'g'risidagi hisobot -Xususiy mulk to'g'risidagi hisobot
Moliyaviy hisobot shakllari	MHXS qo'mitasi tomonidan MHXS lari shakllari mavjud emas. Ammo 1-BHXS (IAS) «Moliyaviy hisobotlarni taqdim etish» standarti hisobotlar mazmuniga qo'yiladigan umumiy talablarni o'z ichiga oladi.	Hisobot shakllari BHMS 1 da ko'rsatib berilgan.
Prinsiplari	Aniqlik (Clarity) Tegishlilik(Relevans) Ishonchlilik (Reliability) Solishtirish, qiyoslash (comparability)	Aktiv va passivlarni pulda baholash, Ishonchlilik, Oldindan ko'ra bilish (ehtiyotkorlik), Ahamiyatlilik, Muhimlilik, Ko'rsatkichlarning qiyosiyliigi, Tushunarlilik, Moliyaviy hisobotlarning betarafligi, Aktivlar va majburiyatlarni haqiqiy baholash, Hisobot davridagi daromadlar va xarajatlarning muvofiqligi, Haqqoniy va beg'araz tasavvur etish, Xolislik Tugallanganlik, Izchillik, O'z vaqtidalik, Offsetting(moddalarning o'zaro hisobga olinishi) Hisoblash, zluksizlik Ikkiyoqlama yozuv bilan hisob yuritish.

1-jadval. Moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlari va buxgalteriya hisobining milliy standartlarining farqli jihatlari

Bu farqlar moliyaviy hisobotlarni foydalanuvchilariga taqdim etishda hamda moliyaviy hisobot elementlarini baholash, tan olish va hisobga olishda ham ifodalanadi.

Moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlari va milliy standartlari farqni moliyaviy hisobotning oxirgi iste'molchilarida ifodalanishi ham manbalarda ko'plab uchraydi.

O'zbekiston Respublikasi uchun moliyaviy hisobot qoidalari moliyaviy hisobotlardan ko'pligi ya'ni buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotning asosiy foydalanuvchilari soliq va statistika organlari hisoblanadi.

Shuni unutmash kerakki, moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlari asosida hisobot berish eng yuqori saviyadagi maqbul iqtisodiy qarorni qabul qilish uchun investorlarga (tashqi foydalanuvchilarga) korxonaga yoki tashkilotning haqiqiy holati to'g'risida ma'lumot berishga qaratilgan.

Moliyaviy hisobotning asosiy elementlarini korxonaga va tashkilotlar balansida asoslash va aks ettirishda ham Milliy standartlar va Moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlari o'rtasidagi yana bir farqni ilg'ash mumkin.

O'zbekiston Respublikasida amalda bo'lgan Buxgalteriya hisobi to'g'risidagi qonuning 7- moddasida aktivlar, majburiyatlar, xususiy kapital, zahiralari, daromadlar, xarajatlar, foyda va zararlar buxgalteriya hisobining ob'ektlari deb ko'rsatilgan, lekin bu elementlarning tavsifi to'liq keltirilmagan. Moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlarida esa barcha kategoriyalarga alohida ta'rif tavsiflar berilgan.

Milliy standartlar va moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarida qo'llaniladigan prinsiplarni 1-jadvalda ko'rish mumkin. Ularning aksariyati asosan qo'llanilishidagi farqlar tufayli emas, balki milliy standartlardagi barcha qoidalarning amalda qo'llanilmasligi sababli yuzaga kelgan. Masalan amortizatsiya xarajatlari aks ettirilganda, buxgalteriya hisobining Milliy standartlari bilan hisob kitob qilinganda amortizatsiyani hisoblash va aks ettirishning to'rt xil usulidan birortasini qo'llashni belgilaydi, ammo ularning uchasi Moliyaviy hisobotning xalqaro standarti 16-Asosiy vositalarda ham qo'llaniladi. Ammo amalda faoliyat yuritayotgan buxgalterlar O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining ko'rsatmasiga asoslanib, hisob-kitoblar va hisobotlar uchun birinchi usulda ya'ni amortizatsiyani hisoblashning to'g'ri chiziqli usulini qo'llashadi. Bu usul 16- standart ko'rsatmalariga to'g'ri kelmaydi.

Bundan shu narsa kelib chiqadiki, mahalliy kompaniyalar uchun respublikamiz hududida moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini joriy etish muammolari nafaqat Moliyaviy Hisobotlarning Xalqaro Standartlari qo'mitasining tavsiyalari asosida, bundan tashqari qonunchilik bazasini qo'llash va talqin qilish jarayonlarini nazorat qilish borasida ham qonunchilikni keng qamrovli optimallashtirishga bog'liq.

Korxonaga buxgalteriya hisobini milliy standartlarda yuritib kelib, MHXS lariga o'tish jarayonida kelgusi davr harajatlarini tan olish va ularni davr xarajatlariga olib borish (ya'ni xarajatlarga olib borish davriyligi ko'zda tutilmoqda) va davr xarajatlarining hisobotlarda BHMS va MHXS talabalariga muvofiq ravishda aks ettirishni ko'rib chiqamiz.

Buxgalteriya hisobining milliy tizimida «kelgusi davr xarajatlari»ni hisobga olish buxgalteriya operatsiyalari(amaliyotlari)ning alohida bir turi hisoblanadi. BHMS bo'yicha moliyaviy hisobotda xarajatlar qoldig'i summasi Buxgalteriya balansining aktivida aks ettiriladi. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tishda kelgusi davr xarajatlari schyotlari bo'yicha qoldiqlarning xalqaro standartlarning Konseptual asoslariga asosan aktiv tushunchasiga muvofiq kelishini batafsil tahlil qilish zaruriyati tug'iladi.

Agarda bunday xarajatlar aktiv sifatida tan olinmasa, ular xarajatlar hisoblanadi. Mabodo xarajatlar summasi –sezilarli darajada bo‘lsa, moliyaviy hisobotda ularni alohida satr bilan aks ettirish zarur.

21-sonli BHMSning 2-ilovasida 3100 guruhida joriy davrda amalga oshirilgan, ammo joriy qismi bo‘yicha kelgusi davrlarga tegishli bo‘lgan xarajatlar to‘g‘risida ma’lumotlar o‘z aksini topgan. 3110 (Oldindan to‘langan operativ ijara haqi), 3120 (Oldindan to‘langan xizmat haqqi), 3190 (Boshqa kelgusi davr xarajatlari). Bu schyotlarda quyida ko‘rsatilgan xarajatlar hisobga olinadi.

- mol-mulknii sug‘urta qilish uchun to‘lov;
- keyingi davrlar uchun operativ ijara bo‘yicha oldindan to‘lovni to‘lash;
- davriy matbuot nashrlariga obunaning yillik summasi uchun oldindan to‘lov;
- keyingi davrlar uchun operativ ijara bo‘yicha oldindan to‘lovni to‘lash;
- mazkur hisobot davrida amalga oshirilgan, biroq joriy qismi bo‘yicha kelgusi davrlarga taalluqli bo‘lgan to‘lov.

Shularga o‘xshash xarajatlar oxirida joriy xarajatlarga (mahsulotlar, ishlar, xizmatlar tannarxi yoki davr xarajatlari) belgilangan muddat davomida bir me’yorda yoki ishlab chiqarilgan mahsulotlarning hajmi(soni)ga mutanosib holatda hisobdan chiqariladi. Bunda hisobdan chiqarish davriyligi korxonalarining hisob siyosatida belgilangan bo‘ladi. Kelgusi davr xarajatlarni har oyda hisobdan chiqarish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

3110 (Oldindan to‘langan operativ ijara haqi) schyotida joriy davrda amalga oshirilgan, ammo kelgusi davrlarga taalluqli bo‘lgan operativ ijara bo‘yicha to‘lovlar hisobga olinishi ko‘rsatilgan.

Misol uchun, yil boshida A korxonaa ijara to‘lovini bir yil oldin to‘ladi. Bu holda shartnomaga asosan tegishli oy ijara to‘lovi summasi joriy xarajatlarga olib boriladi.

3120 (Oldindan to‘langan xizmat haqqi) schyotida oldindan to‘langan xizmat haqqi hisobga olinadi.

Misol uchun, gazeta uchun bir yillik obuna. Bunda obuna summasi yil oylariga bo‘linib, har oyda 1/12 miqdorida joriy xarajatlarga olib boriladi.

Mahsulotlarni ishlab chiqarish bilan bog‘liq xarajatlar yil davomida bir me’yorda yoki ishlab chiqarilgan mahsulotlarning hajmiga mutanosib ravishda joriy xarajatlarga olib boriladi.

3190 (Boshqa kelgusi davr xarajatlari) schyotida 3110 hamda 3120 schyotlarida hisobga olinmagan boshqa oldindan to‘langan xarajatlar hisobga olinadi.

Kelgusi davr xarajatlarini hisobga oluvchi schyotlar bo‘yicha analitik hisob schyotlari, xarajat moddalari va yo‘nalishlari bo‘yicha yuritiladi va schyotlardagi qoldiqlar hisobot davri oxirida buxgalteriya balansida (1-sonli shakl), xarajatlarga hisobdan chiqarilgan summalar esa – moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobotda (2-sonli shakl) aks ettiriladi.

MHXSda “kelgusi davrlar xarajatlari” tushunchasi va xarajatlarni hisobga olish bo‘yicha alohida MHXS mavjud emasligini bilamiz. MHXSga Konseptual asoslarga asosan, amalga oshirilgan xarajatlar aktiv sifatida yoki xarajatlar sifatida aks ettirilishi mumkin. Bu degani aktivlarni tan olish mezonlariga javob bermaydigan xarajatlar ular amalga oshirilgan davrda xarajatlar deb tan olinadi.

MHXS ga Konseptual asosda Aktivga oldingi hodisalar natijasida tashkilot tomonidan nazorat qilinadigan mavjud iqtisodiy resurslar deb ta'rif beriladi. Xarajatlarga esa xususiy kapitalga nisbatan talab qilish huquqlari egalariga taqsimlashlar bilan bog'liq bo'lmagan tarzda xususiy kapitalning kamayishiga olib keladigan aktivlarning kamayishi yoki majburiyatlarning oshishi deb ta'rif beriladi.

Aktivlar moliyaviy holat to'g'risidagi hisobotda (buxgalteriya balansida), xarajatlarga hisobdan chiqarilgan summalar esa – foyda, zararlar va boshqa umumlashgan daromad to'g'risidagi hisobotda aks ettiriladi.

Misol uchun, A korxonaning oldindan to'langan ijara haqi BHMS bo'yicha 3110 "Kelgusi davr xarajatlari" schyotida hisobga olinishini yuqorida ko'rib o'tdik. MHXS maqsadlari uchun esa bunday ijara to'lovi bo'nak(avans) hisoblanadi, chunki xizmat hali ko'rsatilmagan (hisoblash usuli). Agar bo'nak(avans) summasi sezilarli darajada kattaroq summani tashkil etsa, MHXS bo'yicha moliyaviy hisobotning alohida satrida "Oldindan to'langan xarajatlar" nomi bilan yoki uning mazmunini ancha yorqinroq aks ettirish imkonini beradigan boshqa shunga o'xshash tushuncha bilan aks ettiriladi.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР:

1. «Buxgalteriya hisobi to'g'risida» gi O'zbekiston respublikasi Qonuni, 13.04.2016 yil O'RQ-404
2. **O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora tadbirlar to'g'risida" gi PQ-4611 sonli qarori, 24.02. 2020 y**
3. Buxgalteriya hisobi milliy standartlari BHMS № 1, 14.08.1998 y
4. Buxgalteriya hisobi milliy standartlari BHMS №21, 23.10.2002 y
5. A.Xashimova «BHMS va MHXS da kelgusi davr xarajatlari qanday hisobga olinadi» Buxgalter uz internet sayti 24.01.2023 y
6. Sivova Marina «RSBU i MSFO Osnovnie sxodstva i razlichie». Nalog-nalog.ru internet sayti
7. Evdokimova Natalya « Nasionalnie i mejdunarodnie standarti buxgalterskogo ucheta» PPT.ru internet sayti